



UDK: 801.7

Gulshan ERGASHEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: gulshan_199191@mail.ru

Dotsent, PhD Z.Sanakulov taqrizi asosida

NEMIS TILI FRAZELOGIYASIDA "FRAZELOGIZM" VA "FRAZEMA" TUSHUNCHALARI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis va o'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasining o'rni, ahamiyati, turli tilshunos olimlarning frazeologiya sohasidagi ilmiy qarashlari, ularning ushbu fan tarmog'ini rivojiga uchun qo'shgan hissalar, shuningdek, mazkur sohada uchraydigan "frazeologizm" va "frazema" tushunchalari tasniflari va ularning muammoli jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologizm, frazema, lingvistika, semantika.

ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF "PHRASEOLOGICAL UNIT" AND "PHRASEMA" IN GERMAN PHRASEOLOGY

Annotation

This article examines the role and significance of phraseology in German and Uzbek linguistics, the scientific views of various linguists in phraseology, their contribution to the development of this field of science, as well as the classification of the concepts of "phraseology" and "phraseme" found in this field, and their problematic aspects.

Key words: Phraseology, phraseological unit, phraseme, linguistics, semantics.

АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ «ФРАЗЕОЛОГИЗМ» И «ФРАЗЕМА» В НЕМЕЦКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются роль и значение области фразеологии в немецком и узбекском языкознании, научные взгляды различных лингвистов в области фразеологии, их вклад в развитие этой области науки, а также классификации понятий «фразеология» и «фразема», встречающиеся в этой области, и их проблемные аспекты.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, фразема, лингвистика, семантика.

Kirish. Globallashuv natijasida zamonaviy jamiyatning turli jabhalari, jumladan, tilshunoslik sohasida ham turli yangi qarashlar paydo bo'lmoqda. Zamonaviy tilshunoslik, o'z o'rnida, har bir tilning taraqqiy etishida va ilm-ma'rifatning yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Istiqbolimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy tomondan tobora ravnaq topishi bilan birga chet tillarini mukammal o'rganish va ilmiy jihatdan tadqiq etishga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Xususan, chet tillarni ta'limda uzviy hamda uluksiz o'rganish metodik-didaktik takomillashtirishga qaratilgan xatti-harakatlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: – "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiya sanaladi. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz"[1].

Til har bir xalqning madaniyati, tarixi va milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi eng muhim omillardan biri ekanligi ko'plab manbalarda ta'kidlanadi. Frazeologiya sohasi tilshunoslikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mavjud tilning lug'at boyligini hamda uning badiiy ta'sir doirasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi hammamizga ma'lum. Chunonchi, frazeologik birliklar tilning emotsional va obrazlilik xususiyatlarini ifodalovchi elementlar bo'lib, ular xalqning tafakkuri va dunyoqarashini aks ettirishi mavjud adabiyotlar tahlilidan ayon bo'ladi. Ushbu fan doirasida so'zlarning turg'un birikmalaridan tashqari maqol, matal, aforizmlarni olimlar tomonidan turli tasnif qilishga urinishlar ham mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Sohaviy tadqiqotlardan shuni bilishimiz mumkinki, akademik olim A.Xojiev tomonidan "frazeologiya" terminiga ikki xil ta'rif beriladi: "1.

Tilshunoslikning frazeologik birliklarni o'rganuvchi bo'limi. 2. Tilning frazeologik birliklar majmui"[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sohaga oid adabiyotlar tahlilini o'rganish orqali bilishimiz mumkinki, frazeologiyani o'rganish predmeti frazeologizmlarning tabiati va zotiy xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatlaridir. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu sohaga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, chunki frazeologizmlar tilning madaniy, kognitiv va pragmatik jihatlari o'zida aks ettiradi. Xorijiy va mahalliy olib borilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologiya tilshunoslikning muhim sohasi bo'lib, turli davrlarda ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, frazeologiya tilshunoslikning mustaqil va muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u til birliklarining tayyor shaklda qo'llaniladigan, frazeologik birlikning tarkibiy komponentlari semantik to'liq, qisman motivlangan yoki motivlanmagan turg'un birikmalarni o'rganadi.

Nemis tilshunosligida frazeologiya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy soha sifatida shakllana boshlagan va bugungi kunda u leksikologiya, stilistika, tarjima nazariyasi hamda til o'qitish metodikasi bilan bevosita bog'liq ekanligining guvohi bo'lamiz. Biz tadqiq etayotgan nemis tili tilshunosligida ushbu sohani tashkil etadigan birliklarga quyidagilarni kiritib o'tishimiz dardor:

Redewendungen (iboralar): z. B. ins Gras beißen (o'lish). Sprichwörter (maqollar): z. B. Ende gut, alles gut.

Vergleiche (taqqoslovchi iboralar): z. B. stark wie ein Bär (ayiqdek baquvvat).

Geflügelte Worte (qanotli so'zlar): z. B. "Ich kam, ich sah, ich siegte." – Julius Cäsar ("Men keldim, ko'rdim va g'alaba qozondim.")

Tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda xorijiy va mahalliy tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan olimlar ichida frazeologiya sohasining asosiy birligi bu frazeologizm yoki frazema deb atalishi bo'yicha turli qarashlar vujudga kelgan. Bu borada juda ko'plab tilshunoslar o'zlarining muhim qarashlarini ilgari surgan. Sohaga tegishli manbalarni o'rganganimizda "frazeologizm" va "frazema" tushunchalarining o'zaro farqi va ularning ilmiy ta'riflanishi tilshunoslikda bir qancha nazariy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda frazeologizm terminiga alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Frazeologizm termini bu – kengroq tushuncha bo'lib, odatda har qanday turg'un iboralarni o'z ichiga oladi. Ular semantik yaxlitlikka ega, ya'ni tarkibiy qismlarining lug'aviy ma'nosi ko'pincha umumiy iboraning ma'nosidan farqlanadi: ins Gras beißen – so'zma-so'z „maysani tishlamoq“ tarzida tarjima qilinsa-da, u aslida, „vafot etmoq, ko'z yummoq, o'lmoq“ ma'nosida qo'llaniladi.

Frazema esa nemischa "Phrasem", Phraseolexem, Phraseolexikalische Einheit" kabi variantlarda qo'llanilib, bu frazeologizmning bir turi sifatida qaraladi, ba'zida esa torroq ma'noda qo'llanadi. Ko'plab olimlar frazemani barqaror, leksikalashgan ibora, ya'ni tayyor shaklda tilga kirib kelgan, leksik birlik sifatida ishlatiladigan ibora sifatida talqin qiladi. Bu tushuncha ba'zida leksik birlik darajasidagi frazeologik iboralarni anglatadi.

O'zbek tilshunos olimi Sh.Raxmatullayev "frazema" tushunchasiga alohida ta'rif beradi. "Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'ladi va uni tuzma segment birlik deb atash mumkin. Sintaktik tuzilishi jihatidan frazemalar birikmaga, gap shakliga teng bo'lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi. Tilshunoslikda leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazeologizm, frazeologik birikmani frazema deb atashi ma'qul," - deydi olim. Uning fikricha, frazemadan tashqari nutqda xuddi shunday birikma ham tuzib qo'llash mumkin. Nutqning o'zida tuziladigan bunday birikma erkin birikma deyiladi va bunday birikmaga zid holda frazema turg'un birikma (turg'un bog'lanma) deb ataladi. Turg'un bog'lanma keng tushuncha bo'lib, to'g'ri ma'noli va ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalarga ajratiladi. Ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar frazema deyilsa, to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanma deb tarkibli terminlarga (olmoshlab ekish kabi), takror qolipi asosida tuziladigan birliklarga (kuchiga kuch qo'shiladi, husniga husn qo'shib turibdi, kundan kunga kabi) aytiladi [3].

Ushbu tadqiqot ishimiz davomida frazeologiya, uning rivojlanishi hamda unda frazeologizm hamda frazema kabi terminlarga o'z qarashlarini ilmiy adabiyotlarda berib o'tgan olimlar haqida quyida fikr yuritamiz.

Tahlil va natijalar. Frazeologiyaga asos solgan olimlardan biri hisoblanmish shveysariyalik tilshunos Sharl Balli "Frazeologiya" terminini fanga kiritgan va frazeologizmlarni "tilning stereotipik ifodalari" sifatida ta'riflagan olimlardan biridir. Olimning fikricha, frazeologizmlar nutqda tayyor holda ishlatiladi va ularning ma'nosi tarkibiy qismlarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradov esa frazeologizmlarni semantik jihatdan tasniflashni taklif qilgan. U frazeologizmlarni quyidagicha tasniflagan: [4].

- Frazeologik qo'shilmalar (idiomalar)
- Frazeologik birliklar
- Frazeologik birikmalar

Rus tilshunosi N.M.Shanskiy frazeologizmlarni leksikologiya va grammatika bilan bog'liq holda o'rganishga e'tibor qaratgan. U frazeologizmlarning tuzilishi, ma'nosi va

nutqda qo'llanilishini tadqiq qilgan. Shanskiy frazeologizmlarni quyidagi turlarga ajratgan: [4].

- Frazeologik qo'shilmalar
- Frazeologik birliklar
- Frazeologik birikmalar
- Frazeologik ifodalar

Rus tilshunosi A.V. Kunin frazeologiyaning nazariy va amaliy masalalarini keng o'rgangan. U frazeologik lug'atlar tuzishga katta hissa qo'shgan. Kunin frazeologizmlarni quyidagicha ta'riflagan: "Ma'lum bir tilga xos bo'lgan va qayta tiklanadigan til birligi, tarkibi, grammatik tuzilishi va ma'nosi barqaror bo'lib, umuman yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'ladi"[5].

Rus tilshunosi V.M. Mokienko slavyan frazeologiyasini o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. U frazeologizmlarning etimologiyasi, semantikasi va madaniy ahamiyatini tadqiq qilgan. Mokienko frazeologizmlarni madaniyatning ko'zgusi sifatida baholagan va ularning xalq tarixi, urf-odatlar va qadriyatlarini aks ettirishini ta'kidlagan [6].

Nemis tilshunos olimlaridan ushbu sohaning rivoj topishiga o'zining eng katta hissasini qo'shgan tilshunos Wolfgang Flaysherni tilga olmoq joizdir. U frazeologiyaga oid "Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache" asarining muallifi. Flaysher ushbu asarida zamonaviy nemis tilidagi frazeologik birliklarning tasnifi, semantikasi va stilistik funksiyasini chuqur tahlil qiladi. U frazeologik birliklarning turli turlarini (idioma, kollokatsiya, maqol kabilarni) aniqlashtirgan va ular orasidagi farqlarni ko'rsatgan. Nemis frazeologiyasini mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida ilmiy asoslab bergan. Uning ishlari frazeologik birliklarning grammatik, semantik va uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan. U frazeologizmlarni umumiy tushuncha deb oladi, frazemalarni esa idomatiklik darajasi yuqori bo'lgan birliklar deb ko'rsatadi. Ya'ni, eine lange Leitung haben (kech anglash) kabi ifodalar frazema, chunki ular murakkab semantik struktura bilan bog'langan.

Yana bir mashhur tilshunos olim Hans Sheman "Wörterbuch der deutschen Idiomatik" lug'atini hamda "Idiomatik - ein Lexikon der deutschen Redewendungen in ihrer sprachlichen und kulturellen Umgebung" asarining muallifidir. Mazkur lug'at nemis idiomalari bo'yicha eng nufuzli lug'atlardan biridir. Tilshunos olim bu asarida til birliklarining madaniy kontekstdagi o'rni alohida e'tibor qaratadi. Idiomatikani faqat lingvistik nuqtai nazardan emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan ham tahlil qilgan olimlardandir. U frazeologizmlar va frazemalarni deyarli sinonim sifatida ishlatadi, biroq frazema tushunchasini lug'aviy birlik sifatida ta'riflaydi: "frazema – bu lug'atga kiritilishi mumkin bo'lgan tayyor ibora" degan fikrni ilgari suradi.

Zamonaviy nemis tili frazeologiyasida o'z o'rniga ega bo'lgan yana bir tilshunos olim Rozamaria Gleyzer hisoblanib, u "Phraseologie der englischen Sprache" asarining muallifidir. Bu asar asosan ingliz tili frazeologiyasiga bag'ishlangan bo'lsa-da, uning ishlari kontrastiv frazeologiya, ya'ni ikki yoki undan ortiq tillarning frazeologik tizimlarini solishtirishga qaratilgan. Olim tarjima nazariyasida frazeologiyaning o'rni, frazeologik birliklarning semantik ekvivalentlarini izlashda muhim g'oyalarni ilgari surgan. U frazema atamasini faqat idiomatik birliklar uchun ishlatadi, ya'ni faqat majoziy yoki ko'chma ma'nodagi iboralar frazema hisoblanadi degan fikrni ilgari suradi. Misol uchun, Tomaten auf den Augen haben - hech narsani ko'rmayotgandek bo'lish, bu birlikni olim frazema deb ataydi.

A.V.Kunin rus tilshunosligi vakili, ammo nemis tiliga oid tadqiqotlarda ham ta'siri katta. "Курс фразеологии современного английского языка" (1970), "Англо-русский

фразеологический словарь” asarlarining muallifi. Frazeologiyani mustaqil fan sifatida rivojlantirgan, frazeologik birliklarning klassifikatsiyasi va tarjimasi bo'yicha nazariy asoslarni ishlab chiqqan. Uning klassifikatsiyasi nemis va boshqa tillar tilshunosligida keng qo'llaniladi. Tilshunos olim frazeologizmlarni umumiy atama sifatida ishlatadi, frazemani esa "phraseological unit" sifatida, ya'ni frazeologik birlik degan torroq doirada qo'llaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazemalar – bu barqarorlik, semantik yaxlitlik va tayyorlik xususiyatlariga ega bo'lgan iboralar degan fikrni ilgari surgan.

Sohaga tegishli bo'lgan manbalardagi qarashlarni tahlil etgan holda “frazologizm” va “frazema” tushunchalaridagi muammolarni quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin. Ularning birinchisi terminologik muammodir. Bunda “frazologizm” va “frazema” atamaları bir qancha olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ba'zilar ularni sinonim sifatida ishlatasa, boshqalar ularning orasida farq bor deb hisoblaydi. Bu noaniqlik ilmiy adabiyotlarda chalkashlik va bir xillikning yo'qligiga sabab bo'ladi. Ayniqsa kontrastiv tilshunoslikda (ikki tildagi frazeologizmlarni taqqoslashda) muhim to'siq bo'lib xizmat qiladi.

Frazologik birliklarning idiomatiklik darajasiga ko'ra uch turga bo'linadi. Ushbu turlarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Frazologik birliklarning idiomatiklik xususiyatiga ko'ra turlari

Yuqorida keltirilgan turli darajadagi idiomatiklik xususiyat frazeologizmlarning ma'noviy mustaqilligi va komponentlarning semantik shaffofligi asosida ajratiladi. Vollidiomatisch (to'liq idiomatiklik) da frazeologizm yoki frazema tarkibidagi so'zlar butunlay ko'chma ma'noga ega bo'lib, ularning qismlarining leksik ma'nosi asosida umumiy ma'noni tushunib bo'lmaydi. Teilidiomatisch (qisman idiomatik)da frazema tarkibidagi komponentlardan ba'zilar ko'chma ma'noda, ba'zilar esa asl ma'noda, ya'ni so'zma-so'z qo'llanilishi mumkin. Nichtidiomatisch (idiomatik emas) da frazeologizm tarkibida ishtirok etayotgan so'zlarni anglatib kelayotgan ma'nosidan, frazeologizmning mag'zini chaqish mumkin. Bunda komponentlar o'z ma'nosida qo'llanila oladi. Frazologik birliklarning ushbu xususiyatlari ularning yanada ma'nosining jilvakorligini ko'rsatib keladi. Tilda ulardan to'g'ri va o'rinli foydalanish so'zning qudratini yanada mukammallashtirishga hamda oshirishga xizmat qiladi.

Demak, ushbu fikrlardan aytishimiz mumkinki, "frazologizm" bu umumiy atama bo'lib, yuqorida tilga olingan

idiomatiklik xususiyatini o'zida birlashtira oladi. Hamda bu belgilar mavjud bo'lsagina u frazeologizmga aylanadi. "Frazema" esa odatda bu birliklar ichida leksiklashgan, semantik yaxlitlikka ega, idiomatik iboralarni anglatadi va idiomatiklik xususiyatini tasnifga ko'ra ajratadi. Bu borada ko'pgina tilshunoslar bahsli fikrlarni ilgari surishadi va ayrim olimlar bu ikki atamani deyarli sinonim sifatida ishlatadi, shuning uchun kontekstga va muallifning yondashuviga qarab tafovut qilish muhim sanaladi. Terminologik nuqtai nazardan olganda, "frazologizm" tushunchasi ko'proq umumiy va keng doiradagi iboralarni qamrab oladi. Ular orasida idiomatik iboralar, maqollar, qanotli so'zlar, kontekstual iboralar, hatto kollokatsiyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. "Frazologizm" atamasi tilshunoslikda odatda har qanday barqaror, ko'p so'zli, tayyor shaklda qo'llaniladigan iboralarning umumiy nomi sifatida tushuniladi.

Boshqa tomondan esa, "frazema" tushunchasi ko'proq leksik birlik sifatida shakllangan, semantik jihatdan yaxlit, ko'chma ma'noga ega bo'lgan iboralarni anglatadi. Ya'ni frazema frazeologizm ichida eng yuqori darajadagi leksiklashgan, idiomatiklikni o'zida mujassam etgan birlik sifatida talqin qilinadi. Frazologik tizim ichida frazema, odatda, bir tilning lug'at boyligini tashkil qiluvchi mustaqil frazeologik birlik sifatida qaraladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, frazeologiyada "frazologizm" va "frazema" atamaları o'rtasidagi konseptual tafovutlarni aniqlashtirish muhim nazariy va metodologik vazifadir. Ular o'rtasidagi noaniqlik faqat ilmiy tahlilni emas, balki amaliy sohalarida ham murakkablik tug'diradi. Shu bois, har bir ilmiy yondashuvda bu tushunchalarni aniq belgilash, ularning o'zaro nisbatini ko'rsatish va kontekstga mos tahlil qilish zarurdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, bu ikki termin atrofidagi farqlilik tilshunoslar orasida turlicha talqinlarga sabab bo'lgan. Masalan, A.V. Kunin frazeologik birliklarni to'rt asosiy guruhga ajratar ekan, "frazologik birikmalar", "frazologik birliklar", "frazologik iboralar" va "frazemalar" o'rtasida farq qo'yadi. Wolfgang Flaysler esa frazeologizمنى umumiy atama sifatida ko'rgan holda, frazemani idiomatik darajasi yuqori bo'lgan birliklar sifatida tavsiflaydi. Rozamariya Gleyzer frazemani faqat idiomatik, ya'ni ko'chma ma'noli ibora deb hisoblaydi, frazeologizm esa kengroq va turli shakllarda bo'lishi mumkin deb tushuntiradi.

"Frazologizm" bu umumiy va keng tushuncha bo'lib, tilning tayyor iboralari tizimini tashkil etadi, "frazema" esa shu tizim ichidagi leksiklashgan, semantik yaxlit birlik bo'lib, u frazeologik birliklar orasida muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslikda bu ikki atamani aniqlashtirish - frazeologiyaning rivoji, uning nazariy asoslari va amaliy tadbiqini chuqurlashtirish yo'lidagi muhim bosqich hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Конец формы
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, Ўзбекистон, 2016.
3. Хожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 1985. - Б. 125.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, Universitet, 2007. B. 421.
5. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 1.Aufl. Leipzig, Max Niemeyer Verlag 1997. S.14
6. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка, СПб., Специальная Литература, 1996. - 192 с
7. Kunin A.V. Фразеология современного английского языка. Рипол Классик, 1972. С.97
8. Мокиенко В.М., Никитина Т.Г. Большой словарь русских поговорок. Более 40 000 образных выражений, М., ОЛМА Медиа Групп, 2007. - 785 с
9. Эргашева Г. С. (2024). Nemischa frazeologizmlarning struktur-semantik tahlili (inson intellektual salohiyatini ifodalovchi iboralar misolida) Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. Actual Problems of Humanities and Social Sciences Volume 4 | Issue 10 | 2024 ISSN Online: 2181-1342. 170-174.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
11. Умархўжаев М., Назаров Қ. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик лугат. Тошкент, Ўқитувчи, 1994.